



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№3 - 2025 (4) ISSN: 3060-5024



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№3 / 2025 (4)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Sharafutdinov Alisher Ozodovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Mirzayev Jahongir Umrzakovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
professor

Yemazarov Solijon Yerkinovich
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh
muharrir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK NAZARIYA VA TAHLIL

Berdialiyev B.E.
Ijtimoiy profilaktikaning kriminologik vaziyat barqarorligidagi o'rmi 3

Якубов А.С., Азим Шухрат
Механизм правовой регламентации уголовной ответственности
юридических лиц 9

Irisbekov U.
Tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining jinoiy-huquqiy tavsifi va ularni
farqlash mezonlari 19

Tazetdinov R.R., Xoliqov Sh.A., Ikanov A.A.
The issue of social networks page cyber profiling 25

Akramov X.F.
Zamonaviy jamiyatda o'z joniga qasd qilishning nazariy asoslari va
amaliyoti 30

Jo'rayev M.U.
Jamoat xavfsizligi tushunchasi to'g'risida ekspert baholari 37

Исаев С.А.
Оценка загрязнения воздуха и последствий для здоровья от
пиротехнических изделий: вызовы и перспективы 41

A'loxonov M.A.
Zamonaviy kriminologiya: jinoyatchilikning oldini olishda innovatsion
yondashuvlar va kriminologik prognoz metodlari 49

KRIMINOLOGIK TADQIQOT VA AMALIYOT

Тураббаев Х.А.
Киберпреступность и права человека: особенности правового
регулирования и их взаимодействие 54

Nurmuhammedova G.B.
Boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan korrupsiyaga oid jinoyatlarga
qarshi jinoiy-huquqiy kurash 60

Mirzayev J.U.
Shaxslarning qayta jinoyat sodir etish holatlari va ma'lumoti bo'yicha
tahlillar asosida ko'rilishi lozim bo'lgan qo'shimcha chora-tadbirlar 70

Andrea Domokos, Alokxonov Mukhammadmirzokhan
Methodology and methodological foundations of research in modern
criminology 76

Tahririyat manzili:
100187, Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek tumani
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Elektron pochta: info@uzkti.uz
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yxatga
olingan.
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-
fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

SHAXSLARNING QAYTA JINOYAT SODIR ETISH HOLATLARI VA MA'LUMOTI BO'YICHA TAHLILLAR ASOSIDA KO'RILISHI LOZIM BO'LGAN QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR



Mirzayev Jahongir Umirzoqovich
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada jinoyatchilik jamiyat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta'minlash sohasida jiddiy muammo hisoblanishi, shaxslarning qayta jinoyat sodir etish holatlariga qarshi kurashishda mavjud huquqiy ta'sir choralarini bilan bir qatorda, tahlillar asosida qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ozodlikdan mahrum etish jazosi va u bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning qiyosiy tahlili, qayta jinoyat sodir etilishi holatlari qaysi birida ko'proq kuzatilayotganligi, jinoyat sodir etgan shaxslarning ma'lumot bo'yicha tahlili, xorijiy davlatlardagi holatlar borasida fikr va mulohazalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: qayta jinoyat, ma'lumoti bo'yicha tahlil, jinoyat sodir etgan shaxs, jinoiy javobgarlik, jinoyatning oldini olish, targ'ibot qilish, probatsiya nazorati, jazoni ijro etish, ozodlikdan mahrum etish, mahkum, kasb-hunar o'rganish, ta'lim darajasi, psixologik omillar, axloq tuzatish ishlari.

ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ МЕРЫ, ПРИНИМАЕМЫЕ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА РЕЦИДИВНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И УРОВНЯ ОБРАЗОВАНИЯ ЛИЦ

Аннотация. В статье отмечается серьезность проблемы преступности в сфере обеспечения общественной безопасности и правопорядка. Подчеркивается важность разработки и внедрения дополнительных мер на основе анализа и практики в борьбе с рецидивной преступностью, представлен сравнительный анализ наказаний, связанных с лишением свободы и не связанных с лишением свободы, с указанием случаев, в которых чаще всего наблюдается рецидив. Также проводится анализ лиц, совершивших преступления, в зависимости от их уровня образования, а также высказываются мнения и соображения относительно ситуации в зарубежных странах.

Ключевые слова: рецидив, анализ по уровню образования, лицо, совершившее преступление, уголовная ответственность, профилактика преступлений, пропаганда, пробационный контроль, исполнение наказания, лишение свободы, осужденный, профессиональное обучение, уровень образования, психологические факторы, исправительные работы.

ADDITIONAL MEASURES THAT SHOULD BE TAKEN BASED ON THE ANALYSIS OF RECIDIVISM AND THE EDUCATIONAL BACKGROUND OF INDIVIDUALS

Abstract. The article emphasizes that crime is considered a serious problem in the field of ensuring public safety and law and order. In combating recidivism, it is highlighted that, along with existing legal measures, it is important to develop and implement additional measures based on analysis and practice. The article also presents a comparative analysis of punishments related to deprivation of liberty and those not involving deprivation of liberty, identifying in which cases recidivism occurs more frequently. In addition, an analysis is provided of offenders according to their educational background, and opinions and considerations are expressed regarding the situation in foreign countries.

Keywords: recidivism, analysis by education, offender, criminal liability, crime prevention, awareness-raising, probation control, execution of sentence, deprivation of liberty, convict, vocational training, educational level, psychological factors, correctional work.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev huquq tartibot idoralari faoliyati bilan bog'liq muammolar haqida gapirar ekan, "Profilaktika ishlari tahliliga asoslanishi kerak. Har bir huquqni muhofaza qilish organida jinoyatchilikning joyi va turi bo'yicha chuqur ma'lumot bo'lishi, buning uchun davlat idoralari, jamoat tashkilotlari muntazam birga ishlashi zarur. Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, prokuratura – hammasi xalqqa xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda ham jaholatga qarshi ma'rifat kuchli bo'lishi lozim. Muhit shunday bo'lishi kerakki, hech kim jinoyatga qo'l ura olmasin" [1], deya takidlagan edi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri – jinoyatchilikni kamaytirish, ayniqsa, shaxslarning qayta jinoyat sodir etish holatlarining oldini olishdan iborat. Chunki jinoyat sodir etgan shaxsning yana jinoyat yo'lga kirishi nafaqat mavjud jazo tizimi samaradorligiga, balki jamiyatdagi tarbiya, ma'naviy muhit va huquqiy tartibotning holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashish nafaqat jazo choralarini qo'llash, balki uning oldini olishga yo'naltirilgan samarali profilaktik tadbirlar tizimini shakllantirishni ham taqozo etmoqda. Bu esa jinoyat sodir etgan shaxslarning ta'lim darajasi, kasb-hunarga egaligi, psixologik holati, axloqiy qarashlari, oilaviy va ijtimoiy muhitini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bu kabi tahlillar qayta jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ozodlikdan mahrum etish jazosi va unga alternativ jazo choralari qiyosiy tahlili ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan qaysi holatlarda qayta jinoyatchilik ko'proq kuzatilayotganini aniqlash orqali tizimdagi bo'shliqlar va kamchiliklarni samarali bartaraf etish mumkin bo'ladi. Shu jihatdan, xorijiy tajribalarni o'rganish hamda milliy amaliyotga mos keladigan qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish

bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz asosida ilgari sudlangan shaxslarning qayta jinoyat sodir etishi holatlari va jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari bo'yicha kompleks ilmiy-tahlil amalga oshirildi.

Ilmiy-tahlil davomida probatsiya nazorati ostida bo'lgan hamda jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan 100 nafardan ortiq mahkum individual (keys-stadi usuli) asosda o'rganib chiqildi.

2024-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan jinoyat sodir etgan 61 502 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilib, ularning 20 659 nafari (33,6 %) ozodlikdan mahrum qilish va 40 843 nafari (66,4 %) ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan. Jumladan, 7 411 nafari jarima, 1 080 nafari shartli hukm, 17 390 nafari axloq tuzatish ishlari, 14 644 nafari ozodlikdan cheklash, 23 nafari muayyan huquqdan mahrum qilish, 295 nafari majburiy jamoat ishlari jazosi tayinlangan.

2025-yilning 6 oyida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan jinoyat sodir etgan 27 568 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilib, ularning 8 698 nafari (31,5 %) ozodlikdan mahrum qilish va 18 870 nafari (68,5 %) ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan, ya'ni 3 646 nafari jarima, 7 423 nafari axloq tuzatish ishlari, 7 600 nafari ozodlikdan cheklash, 24 nafari muayyan huquqdan mahrum qilish, 177 nafari majburiy jamoat ishlari jazosi tayinlangan [2].

Jinoyat sodir etgan shaxslarning ma'lumoti bo'yicha tahlil. Jinoyat sodir etgan shaxslarning ta'lim darajasi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar jinoyatchilikning ildizlari shaxsning ma'lumot darajasiga bog'liq emasligini, o'rta va oliy ma'lumotga ega shaxslar orasida ham jinoiy xatti-harakatlar keng tarqalganligini ko'rsatmoqda.

Xususan, 2024-yilda jinoyat sodir etgan shaxslarning 66,2% (35693 nafar) o'rta, 27,7% (14573 nafar) o'rta-maxsus va 12,3% (7072 nafar) oliy ma'lumotli bo'lib, bu holat jinoyatchilikning

sabablarini aniqlashda ta'lim darajasi bilan birga, boshqa ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarni ham chuqur o'rganish zarurligini anglatadi.

2025-yilning 6 oyida 1981 nafar oliy, 4584 nafar o'rta-maxsus, 11900 nafar o'rta, 908 nafar to'liqsiz o'rta ma'lumotli shaxslar jinoyat sodir etgan.

Qayta jinoyat sodir etganlarning aksariyati maktab va kasb-hunar kollejida yaxshi baho olishga qiziqmagan, dars qoldirgan kunlari ko'p bo'lgan. Ularning o'zi yoki otasi Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarga migrant sifatida ishlashga borib kelishgan. Ko'pchiligi moddiy qiynalgan, to'liq bo'lmagan oilada o'sgan va nosog'lom muhit ta'sirida bo'lgan. Shu bois ular uchun ta'lim ikkinchi darajaga tushib qolgan.

Ayrim jinoyat turlari bo'yicha statistik ma'lumotlar oliy va o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarning jinoyatchilikdagi ulushi o'rta ma'lumotli shaxslarning shu turdagi jinoyatlardagi ulushiga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, 2024-yilda o'qishga kiritib qo'yish bilan bog'liq firibgarlik jinoyati bo'yicha javobgarlikka tortilgan shaxslarning 95 nafarini oliy va o'rta-maxsus hamda 26 nafarini o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tashkil qilgan.

Shu kabi, o'zlashtirish (877/275), elektr energiya o'g'irligi (675/467), pora olish (195/5), pora berish (659/443), kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish (23/8) va boshqa shu kabi jinoyatlarda oliy va o'rta-maxsus ma'lumotlarning ulushi yuqoriligi kuzatilgan.

2025-yilning 6 oyida o'zlashtirish (118/46), elektr energiya o'g'irligi (169/120), pora olish (79/1), pora berish (269/171) kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish (24/24) holatlari ma'lumotga ega shaxslar tomonidan sodir etilgan.

Jinoyat sodir etgan shaxsga berilgan jazoning natijadorligi. Ma'lumki, qonunchilikda jinoyat sodir etgan shaxsga jazo sifatida jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan biri qo'llaniladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida – ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilinganlar, probatsiya nazoratida – majburiy jamoat ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklashga hukm qilinganlar jazo o'taydi.

Shuningdek, jarima davlat ijrochisi (MIB) tomonidan, xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish harbiy qism tomonidan ijro etiladi, shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

AQSH davlat departamentining "Uzbekistan 2011 OSAC Crime and Safety Report" hisobotida o'g'rilik jinoyatlari bilan shug'ullangan shaxslar orasida qayta jinoyat sodir darajasi yuqori ekanligi ma'lum qilingan [3].

Mazkur ma'lumotlar bugungi kunda o'z tasdig'ini topib, 2024-yilda ilgari sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar orasida o'g'rilik jinoyatining salmog'i 24 % (8 431 tadan 2 039 tasi) bo'lsa, 2025-yilning 6 oyida 42,5 % (1 298 tadan 552 tasi) tashkil etgan.

Ilmiy tahlillar natijasida shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda ozodlikdan mahrum etish jazosining natijadorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Jumladan, 2024-yilda 22 391 nafar mahkum jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilib, 1 va 1,5 yil ichida 328 nafari (1,5 %) qayta jinoyatga qo'l urgan. 2025-yilning 6 oyida esa ozodlikdan mahrum etish muassasalaridan 7 994 nafar mahkum ozod etilib, ularning 182 nafari (2,3 %) qayta jinoyat sodir etgan.

Ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish davomida mahkumlarni axloqan tuzatish va ijtimoiylashuvini ta'minlash borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmog'ida.

Xususan, 2024–2025-yillarda 28 557 marotaba ommaviy va guruh, 309 134 marotaba yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik tadbirlar o'tkazilgan, 16 283 nafar mahkum kasb-hunarga o'rgatilgan, sertifikat bilan ta'minlangan.

2 370 nafar mahkum tikuvchilik, 1 169 nafari payvandchilik, 1 134 nafari mebelsozlik, 1 168 nafari temirchilik, 1 133 nafari duradgorlik, 325 na-

fari avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, 153 nafari elektromontyor, 128 nafari sartaoroshlik, 117 nafari santexnik, 115 nafari chilangarlik va boshqa turdagi kasb-hunarga o'rgatilgan. Natijada, qayta jinoyat sodir etilishi kamayishiga erishilib, 2020–2024-yillarda ozod etilgan jami 51 509 nafar shaxsning 1 962 nafari yoki 3,8 foizi qayta jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum etilgan.

Qayd etish joizki, mahkumlarni kasb-hunarga o'rgatish, ma'lumoti yo'qlarini qo'shimcha o'qitish, kitob o'qishini rag'batlantirish kabi tarbiyaviy tadbirlar natijasida, ozodlikka chiqqan mahkumlar jamiyatda o'z o'rnini topib, jinoyat sodir etish yo'lidan qaytmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda jazo muddatini o'tab ozodlikka chiqqandan va so'nggi ikki yil mobaynida qayta jinoyat sodir etgan shaxslar ulushi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning mamlakatlar kesimidagi nisbiy ko'rsatkichlari o'rganildi.

Bu borada qayta jinoyatchilik darajasi bo'yicha eng past ko'rsatkich Norvegiya (17,6 %), Singapur (19,1 %) va Islandiya (21,2 %), o'rtacha ko'rsatkich Avstriya (24,3 %), Niderlandiya (24,6 %), Kanada (27,9 %), Daniya (32 %), Shvetsiya (32 %), Finlyandiya (33 %) va AQSH (32,1 %), eng yuqori ko'rsatkich Chili (40 %) va Janubiy Afrika (86-94 %) davlatlarida kuzatilgan [4].

O'zbekistonda qayta jinoyatchilik ko'rsatkichi ko'pi bilan 4 foizgacha bo'lishi, o'z navbatida, eng past ko'rsatkich qayd etilgan davlatlar qatoridan joy olishi va xavfsiz davlat sifatida qaralishiga zamin yaratmoqda.

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar. Sudlar tomonidan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan 48 656 nafar shaxs probatsiya hisobiga olingan bo'lib, ularning 818 nafari (1,7 %) jazoni o'tash davomida qayta jinoyat sodir etgan.

Nazorat ostidagi shaxslar tomonidan og'ir tan jarohati yetkazish 22 ta, fohishaxona tashkil etish 22 ta, bosqinchilik 7 ta, tovlamachilik 8 ta, talonchilik 7 ta, firibgarlik 94 ta, o'g'irlilik 141 ta, transport vositasini olib qochish 9 ta, giyohvandlik

bilan bog'liq 142 ta, bezorilik 13 ta hamda boshqa turdagi jinoyatlar 61 ta qayd etilgan.

2025-yilning 6 oyida jinoyat sodir etgan ilgari sudlangan shaxslarning 1 764 nafarini o'rta, 527 nafarini o'rta-maxsus, 164 nafarini oliy ma'lumotli shaxslar tashkil qilgan.

2024-yilda o'rta ma'lumotlilar 4 805 ta, o'rta-maxsus ma'lumotlilar 1 575 ta, oliy ma'lumotlilar 525 ta jinoyat sodir etgan

Qayta jinoyat sodir etilishi omillarini aniqlash va bartaraf etish umumiy emas, balki har bir shaxsga nisbatan individual yondashuvni talab etadi.

Muqaddam ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga tortilganidan so'ng qayta jinoyat sodir etgan shaxslar bilan o'tkazilgan suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, ularning aksariyati birinchi marotaba jinoyat jazoga tortilgan vaqtda ozodlikning, oilaning qadrini bilishmagan, jazoning ta'sirini kam sezishgan.

Ta'kidlash joizki, ayrim xorijiy davlatlarning olim va tadqiqotchilari qayta jinoyatlarining oldini olish uchun quyidagi yo'nalishlarni asosiy deb hisoblaydilar:

– *ta'lim va kasb-hunar o'rgatish.* Qamoqxonalarda o'quv dasturlari mahkumlarning qayta jinoyatga qaytish ehtimolini kamaytiradi (Times Union) [5];

– *tabiat bilan aloqa, mehnat va hurmatga asoslangan munosabat.* Britaniyada o'tkazilgan sinovlar mahkumlarning qayta jinoyatchilikka qaytmaligida katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatgan (The Guardian) [6];

– *jamoat bilan integratsiya va qo'llab-quvvatlash.* Britaniya qamoqxonalaridan birida "community connections officer" tajribasi mahkumlarni jamoat hayotiga qaytarishda samarali ekani qayd etilgan (Financial Times) [7].

Demak, jinoyatchilikning oldini olish va retsdivni kamaytirish uchun faqat jazo choralari yetarli emas, balki ta'lim, mehnat, tabiat bilan aloqa va jamoat bilan integratsiyani ham kuchaytirish zarur.

Zero, huquqbuzarliklarning sodir etish sabablarini, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish profilaktikaning asosiy vazifasidir [8].

Bizning fikrimizcha, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat amaldagi chora-tadbirlarning emas, shu bilan birga, ilmiy tahlillardan kelib chiqqan va asoslangan qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shaxslarning qayta jinoyat sodir etish holatlari hamda ma'lumoti tahlili natijalaridan kelib chiqib, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha asosiy tadbirlarga qo'shimcha ravishda quyidagilarni amalga oshirish joiz:

- ✓ shaxslarning ma'lumoti bo'yicha tahlildan kelib chiqib, kelgusida fuqarolar uchun muhim bo'lgan minimal huquqiy va boshqa ilm darajasini belgilab, jinoyat sodir etishga moyil va muqaddam sudlangan shaxslarni shu asosida o'quv dasturlariga "onlayn" jalb qilish;

- ✓ qayta jinoyat bo'yicha hisobot tizimini yo'lga qo'yish, jumladan qayta jinoyatni aniqlash imkonini beradigan tizim joriy etish, probatsiyadan yoki jazoni ijro etish muassasasidan ozod bo'lgan shaxsning qayta jinoyat sodir etganligini aniq ko'rib turish mumkin bo'lgan platforma (baza) yaratish;

- ✓ probatsiya xizmati nazoratida bo'lgan shaxslar jazosini ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirish jarayonida, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida, mahalla faollari, jumladan, mahalla raisi yoki oqsoqollar tomonidan kafillikka olish institutini joriy etish. Shuningdek, bunday shaxslarni jazoni ijro etish muassasalariga olib borib, jazo o'tayotgan mahkumlar bilan ularning uchrashuvini tashkil etish;

- ✓ probatsiya nazoratdagi shaxslarni kitob o'qishga qiziqtirish, ular uchun alohida tarbiyaviy kitob ishlab chiqish, turli kasblarni o'rgatuvchi kitoblarni o'qishga yo'naltirish, probatsiya bo'linmalarida kichik kutubxonalar tashkil etish va undan kitob olib o'qiyotgan shaxslarning hisobini olib borish hamda rag'batlantirish;

- ✓ probatsiya nazoratidagi shaxslarni ish bilan ta'minlash bo'yicha manzil-kolonyalaridagi kabi imtiyozli tizim joriy etish.

Mahkumlarni ish bilan ta'minlagan tadbirkorlik subyektlariga manzil-kolonyalaridagi kabi soliq imtiyozlarini berish;

- ✓ probatsiya nazoratidagi shaxslarning mehnat bozorida raqobatbardosh kasb egallash samaradorligini oshirish va jinoyatchilik yo'lga qayta kirish ehtimolini kamaytirish maqsadida "onlayn ta'lim" dasturini joriy etish;

- ✓ Yoshlar ishlari agentligi huzurida "Ozod bo'lgan yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash markazi"ni tashkil etish. Mazkur markaz jazo muddatini o'tayotgan yoshlar bilan ishlab, ularni jamiyatga tayyorlash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga ko'maklashadi hamda ozod bo'lgandan keyin jamiyatda o'z o'rini topib ketishini bir yil mobaynida monitoring qilish bilan shug'ullanadi;

- ✓ ozodlikdan mahrum etish jazosidan va probatsiya nazoratidan ozod etilgan shaxslarning jamiyatga moslashuvini samarali ta'minlash maqsadida, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida "Jazodan ozod bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llash markazi"ni tashkil etish.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritish istagi bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etish va faoliyatini rag'batlantirib borish. Ularning asosiy vazifasi – ozod etilgan shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ishga joylashishi, psixologik va huquqiy yordam olishi, doimiy monitoringda bo'lishi va kriminogen muhitdan uzilib, ijobiy hayot tarziga qadam qo'yishiga ko'maklashishdan iborat bo'ladi;

- ✓ "Probatsiya nazoratidagi shaxslarning onigini qonunga itoatkorlik ruhida o'zgartirib tarbiyalash" metodikasini ishlab chiqish. Har bir shahar-tumanda probatsiyadagi shaxslarga "Tarbiyaviy ma'ruzalar o'tkazadigan guruh" tuzish va har chorakda tarbiyaviy suhbatlar o'tkazib borishini tashkil etish;

- ✓ probatsiya nazoratidagi shaxslarning muarojaati va muammolari yechimi haqida "onlayn" javob olish mumkin bo'lgan "elektron dastur" yaratish. Ular bilan muntazam sayyor qabullar tashkil etish;

- ✓ "Mahalla yetiligi" a'zolarining ichki idoraviy hujjatlarida probatsiya nazoratidagilar bilan shug'ullanishi bo'yicha vazifalarini aniq ko'rsatish;

- ✓ "Jinoyat sodir etishga moyillarni aniqlash" va "Tuzalish yo'lga o'tganlarni farqlash" metodi-

kalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

- ✓ axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilingan shaxslardan davlat daromadi hisobiga o'tkazilayotgan mablag'larning 3% dan ijtimoiy og'ir ahvolda qolgan mahkumlar uchun alohida jamg'arma tashkil etish va ushbu jamg'armadagi mablag'lar hisobidan ijtimoiy og'ir ahvoldagi mahkumlarga moddiy va boshqa yordam ko'rsatib borish;

- ✓ har bir probatsiya nazoratidan chiqarilayotgan shaxsdan qayta jinoyat sodir etmaslik haqida tantanali va'dasini olish tadbirini tashkil etish;

- ✓ axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash tartibiga mahkum bir yilda ikki martadan ortiq jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda sud jazosini og'irrog'iga almashtirishi mumkinligini kiritish;

- ✓ Jinoyat kodeksining 70-moddasi (shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish) kabi, 70¹ - moddasini qabul qilish. Unda, shaxs berilgan jazoning 3/2 qismini o'tab bo'lganidan so'ng, faqat axloqan tuzalgan mahkum: yosh bo'lsa, ijtimoiy holati bo'yicha oilasiga yordam ko'rsatishi zarur bo'lsa davlat idoralari va oila a'zolari tomonidan kafillik bildirilsa, yetkazilgan zararlarni qoplagan bo'lsa yoki jabrlanuvchi rozilik bildirsas, sud tomonidan ozod etilishi mumkin – deb belgilash.

Foydalanilgan manbalar

1. https://uznews.uz/ru/news/21933?utm_source=chatgpt.com.
2. IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bosh markazining 2024-yil va 2025-yilning 6 oylik hisobotlari.
3. https://factsanddetails.com/central-asia/Uzbekistan/sub8_3f/entry-4726.html.
4. https://www.timesunion.com/opinion/article/prison-education-investment-communities-19994282.php?utm_source=chatgpt.com ("Times Union" jurnali).
5. https://www.theguardian.com/society/2025/aug/22/nature-respect-and-work-all-help-to-reduce-prisoners-reoffending?utm_source=chatgpt.com ("The Guardian" jurnali).
6. https://www.ft.com/content/a61f658d-38c4-444a-907b-ce3afe56d44b?utm_source=chatgpt.com ("Financial Times" jurnali).
7. <https://inlibrary.uz/index.php/archive/user/register>, <https://www.factroom.ru/goroda-i-strany/norvegiya/norvezhskie-tyurmy-effektivnee-vsekh-ispravlyayut-prestupnikov>.
8. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/2387357>.